

TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

¹ *Turdiyeva Shoxidaxon Anvarjonovna*,² *Uktamova Muhabbat Ozodbek qizi*,³ *Axmedova Kamola Ashirmamat qizi*.¹ *Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika va Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,*² *Andijon davlat pedagogika institute, Kimyo yo'nalishi 2-bosqich talabasi,*³ *Andijon davlat pedagogika instituti, Kimyo yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu matn ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi uning menejment nazariyasi bilan boyitilganligini ta'kidlaydi. Menejment nazariyasi xodimlarga ishonch, ularning unumli mehnati uchun sharoit yaratish va o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi. Menejment faoliyat turi, boshqaruv san'ati, apparati va o'quv predmeti sifatida tushuniladi, uning asosiy maqsadi mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijaga erishishdir.

Kalit so'zlar : Menejment. Ta'lim muassasalarini boshqarish. Pedagogik menejment. Pedagogik tahlil Tizimli yondashuv. Pedagogik Kengash. Boshqaruvni rejalashtirish. Xalq ta'limi organlari. Maktab inspeksiyasi. Boshqaruv maqsadlari.

Аннотация: Данный текст подчеркивает, что теория управления образовательными учреждениями обогащена теорией менеджмента, которая характеризуется доверием к персоналу, созданием условий для их продуктивного труда и взаимным уважением. Менеджмент рассматривается как вид деятельности, искусство управления, аппарат управления и учебный предмет, основная цель которого — достижение максимальных результатов при минимальных возможностях.

Ключевые слова: Менеджмент. Управление образовательными учреждениями. Педагогический менеджмент. Педагогический анализ. Системный подход. Педагогический совет. Планирование управления. Органы народного образования. Школьная инспекция. Цели управления.

Annotation: This text highlights that the theory of educational institution management has been enriched by the theory of management, which is characterized by trust in staff, creating conditions for productive work, and mutual respect. Management is understood as a type of activity, an art of governance, a governing apparatus, and an academic subject, with the main goal of achieving maximum results from minimal available resources.

Key words: Management. Management of educational institutions. Pedagogical management. Pedagogical analysis. Systematic approach. Pedagogical Council. Management planning. Public education bodies. School inspection. Management goals.

Kirish: Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi. «Menejment» va «menejer» atamaları hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi. Menejment – bu faoliyat turi, boshqaruv apparati, boshqaruv san'ati, o'quv predmeti ma'nolarida qo'llanilmoqda. Menejment o'quv predmeti sifatida 1881-yilda amerika kollejlari Djozef Varton tomonidan o'qitila boshlangan. Bugungi kunda olimlar menejment ijtimoiy tashkilotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini ifodalashini ta'kidlamodalar. Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) - mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Pedagogik menejment birinchidan; pedagogik tizim sifatini rivojlantirishga yo'naltirilgan boshqaruv prinsiplari, metodlari, shakllari va texnologik usullari ikkinchidan, pedagogik jamoa va o'quvchilar faoliyatini ilmiy boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik menejment xususiyatlari ta'lim menejerimehnatining natijasida, mehnat qurolida, mahsulotida, mehnat predmetida ifodalanadi. Xalq ta'limi Vazirligining mahalliy organlari quyidagilar sanaladi: Xalq ta'limi vazirligining mahalliy organlariga xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar, tuman bo'limlari kiradi. Xalq ta'limi bo'limlari mahalliy hokimlik tasarrufiga kiradi va unga bo'ysunadi. Ular maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta'minlash uchun ko'maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlarini tayinlash ham kiradi. Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga yordam ko'rsatadi Ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning

belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Ikkinchi belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integratsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo'ladi. To'rtinchi belgisi ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Chunki ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta'lim jarayonini qayta quradi hamda o'zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi. Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish tamoyilio'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vaqillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi. Ta'lim muassasasining rahbari o'zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. SHuning uchun u o'z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instruktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta'lim muassasasi ma'muriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o'qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog'liq. Agar o'z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to'g'ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o'zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

- 1) kundalik tahlil;
- 2) tizimli tahlil;
- 3) yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil - o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirish va intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi. Tizimli tahlil - darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko'tarish hamda

ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat. Yakuniy tahlil - o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o'quvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iborat. Boshqaruv faoliyatining maqsadi – ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi, boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish- pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir.

Pedagogik Kengash – ta'lim muassasasining boshqaruv organi.

Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o'stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik kengash faoliyat ko'rsatadi.

Xulosa: Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi zamonaviy menejment nazariyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xodimlarga nisbatan ishonch, hurmat va samarali mehnat sharoiti yaratishga urg'u beradi. Menejer professional tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis sifatida minimal imkoniyatlardan maksimal natijaga erishish maqsadida xodimlar va guruhlar bilan hamkorlik qiladi. ulosa qilib aytganda, ta'lim muassasasining rahbari menejer sifatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, tizimlilik va jamoatchilikka asoslangan holda, uzluksiz tahlil orqali ta'lim-tarbiya jarayonini doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R. J. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiyalar,
2. Tolipov U. Q., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariyasi va amaliyoti*.
- 4) Avazboyeva N. Sh. *Ta'lim tizimini boshqarish asoslari*.